Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi	Irratsional e'tiqodlarni o'zgartirish
Vazifalarni maydalash	Pomodoro texnikasi
2 daqiqa qoidasi	James Clear metodikasi
Ijtimoiy majburiyat	Do'stlar bilan o'zaro nazorat
Gamification	Vazifalarni o'yin shakliga keltirish

4. Qoniqish komponenti: Xobbi asosida maqsadga erishish. O'quvchilarga o'z xobbilari doirasida qisqa muddatli maqsad qo'yish topshirildi. Natijada she'r, hikoya yozish, rasm chizish, yog'ochdan o'rindiq yasash, ko'ylak tikish, sharf to'qish, robot yasash, sport o'yinlarida g'alabalar qo'lga kiritish, ingliz tilida hikoya yozish kabi faoliyatlar amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Eksperiment yakunida takror so'rovnoma natijalari o'quvchilarda ta'lim olishga yuqori ishtiyoq, o'z-o'ziga ishonchi ortishi, mas'uliyat hissi shakllanishi, hamjihatlik, vaqtni to'g'ri taqsimlash, maqsadga yo'nalganlik kabi ijobiy xarakterlar shakllangani kuzatildi.

Tadqiqot jarayonida ARCS modelining bir qator kamchiliklari aniqlandi:

1. Soddalashtirilganligi: Model motivatsiyani ketma-ket jarayon sifatida tasvirlaydi, ammo amalda bu yanada murakkab;
2. Ijtimoiy kontekstga yetarlicha e'tibor bermasligi: Guruh dinamikasi, madaniy omillar yetarli darajada hisobga olinmagan;
3. Amaliyotda qo'llash qiyinligi: Cheklangan vaqt va resurslar sharoitida joriy etish muammolari;
4. Baholarning subyektivligi: «Muhimlik» va «qoniqish» darajasini aniqlash o'quvchining shaxsiy idrokiga bog'liq;
5. Empirik isbotlarning yetishmasligi: Ba'zi komponentlar uchun yetarli ilmiy dalillar mavjud emas.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ARCS motivatsion modeli sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda samarali qo'llanilishi mumkin. Model maktab sharoitida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, faol ishtirokini ta'minlash va shaxsiy rivojlanishga ko'maklashuvchi kuchli vosita hisoblanadi. ARCS modelini sinfdan tashqari ishlarda doimiy ravishda qo'llash, videokontentlar, metakognitiv strategiyalar va xobbi asosidagi faoliyatlarni integratsiyalash, prokrastinatsiya va kognitiv dissonans muammolariga alohida e'tibor berish, modelning har bir komponentini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirish, ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda modelni takomillashtirish kabi faoliyatlar yuqori natijalarga samarali vosita bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Keller J.M. (1987). Development and use of the ARCS model of instructional design. Journal of Instructional Development.

(2). Dincher S. (2020). Meta-analysis of ARCS model effects on student motivation. Çukurova University Research.

(3). Fang Y. (2023). ARCS model in instructional design: Empirical studies 2011-2022. Educational Technology Research.

(4). Prasetya I. (2024). Augmented reality and ARCS motivational design: Effects on learning outcomes. Journal of Educational Innovation.

(5). Clear J. Atomic Habits: An Easy & Proven Way to Build Good Habits & Break Bad Ones.

Yuldashev Sherzod (Samarqand davlat Chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi, Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti o'qituvchisi; E-mail: syuldashev648@gmail.com)

BAHO KATEGORIYASINING LINGVOPRAGMATIK TABIATI VA UNING NUTQIY IFODALANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilshunoslikda muhim va murakkab tushunchalardan biri bo'lgan baho va bahoviylik kategoriyasining nazariy asoslari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda bahoning aksiologik, pragmatik va lingvistik talqinlari ilmiy manbalar asosida yoritilib, baholashning subyektiv va obyektiv komponentlari aniqlanadi. Baholash aktining zaruriy elementlari – subyekt, obyekt, bahoning xarakteri va asoslari izchil ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *baho kategoriyasi, bahoviylik, aksiologiya, pragmatika, lingvistik baho, subyektiv modallik, baholash shkalasi, eksplisit va implisit baho, neologizmlar, diskurs.*

Юлдашев Шерзод (независимый исследователь, Самаркандский государственный институт иностранных языков, преподаватель, Каттакурганский государственный педагогический институт; E-mail: syuldashev648@gmail.com)

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА КАТЕГОРИИ ОЦЕНКИ И ОСОБЕННОСТИ ЕЁ РЕЧЕВОГО ВЫРАЖЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье на основе комплексного подхода анализируются теоретические основы категории оценки и оценочности как одного из наиболее значимых и сложных понятий*

в лингвистике. В исследовании, опираясь на научные источники, рассматриваются аксиологические, прагматические и лингвистические интерпретации оценки, а также выявляются субъективные и объективные компоненты оценивания. Последовательно анализируются обязательные элементы акта оценки – субъект, объект, характер и основания оценки.

Ключевые слова: *категория оценки, оценочность, аксиология, прагматика, лингвистическая оценка, субъективная модальность, оценочная шкала, эксплицитная и имплицитная оценка, неологизмы, дискурс.*

Sherzod Yuldashev (Independent Researcher at Samarkand State Institute of Foreign Languages Lecturer at Kattakurgon State Pedagogical Institute; E-mail: syuldashev648@gmail.com)

THE LINGUOPRAGMATIC NATURE OF THE CATEGORY OF EVALUATION AND ITS FEATURES OF SPEECH REPRESENTATION

Annotation. *This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of the categories of evaluation and evaluativity, which are considered among the most significant and complex concepts in linguistics. Drawing on relevant scholarly sources, the study examines axiological, pragmatic, and linguistic interpretations of evaluation and identifies its subjective and objective components. The essential elements of the evaluative act – namely the subject, object, character, and grounds of evaluation – are analyzed in a systematic manner.*

Keywords: *category of evaluation, evaluativity, axiology, pragmatics, linguistic evaluation, subjective modality, evaluative scale, explicit and implicit evaluation, neologisms, discourse.*

Kirish (Introduction). XX asr oxiriga kelib, baho kategoriyasi olimlarning alohida e'tiborini torta boshladi. Baho qadriyat kategoriyasi sifatida turli sohalarda o'rganilmoqda. Tizimli-funksional lingvistikada baho mualliflar yoki notiqlar narsalar, odamlar, ularning xatti-harakatlari yoki g'oyalari haqida ma'qullash yoki ma'qullamaslikni ifodalash usullari sifatida talqin qilinadi. Tizimli-funksional lingvistika bahoni tilning yaxlit modelida va ijtimoiy kontekstdagi shaxslararo tizim sifatida ko'radi. Til foydalanuvchilari suhbatdoshlar bilan munosabatlarini o'z bahoviy pozitsiyalarini ifodalash orqali quradilar.

Lingvistikaning boshqa yo'nalishlarida ham (lingvistik antropologiya, sotsiolingvistika va boshqalar) "baho", "baholilik", "pozitsiya" kabi atamalar qo'llanadi. Bahoga oid tahlil tizimli-funksional lingvistika doirasidan tashqarida, turli xil diskursiv tahlillarda ham alohida ahamiyat kasb etgan. Baho kategoriyasi nafaqat lingvistlar, balki faylasuflar, psixologlar, mantiq, etika mutaxassislari uchun ham muhim tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Tilshunoslikda deyarli hech bir tushuncha "baho, baholilik" kabi keng talqin va yondashuvlarga ega emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Aksiologik yondashuv doirasida baho masalasi faylasuflar J.Mur, T.Gobbs, G.Sidjuik, R.Xear va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Mantiqiy-falsafiy nuqtayi nazardan "baho – bu subyekt uchun biror narsaning ahamiyatini belgilash usuli" sifatida talqin qilinadi. Pragmatik yondashuv bahoni nutqiy aktlar doirasida ma'qullash va ma'qullamaslik kommunikativ maqsadlarining amalga oshirilishi sifatida ko'radi. Bu yo'nalishni E.M.Volf [5], V.I.Shaxovskiy va boshqalar qo'llab-quvvatlaydi. Pragmatik yondashuvda baho funksional-semantik kategoriya bo'lib, u tilning barcha darajalaridagi vositalar (avvalo leksik va sintaktik) yordamida yaratiladi va baholash funksiyasini bajaradi. Lingvistik yondashuv esa til birliklarining qo'shimcha, hamroh ma'nolariga alohida e'tibor qaratadi. Bu yo'nalishda O.S.Axmanova, A.N.Kojin, D.E.Rozental, V.V.Odintsov va boshqalar tadqiqot olib borgan. O.S.Axmanovaning fikricha, baho bu so'zlovchining hukmi, uning munosabati (ma'qullash yoki ma'qullamaslik, rag'bat, istak va h.k.) bo'lib, u stilistik konnotatsiyaning asosiy qismlaridan biridir [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Baho kategoriyasining lingvopragmatik tabiati va uning nutqiy ifodalanish xususiyatlariga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning chog'ishtirma tahlil, semantik tahlil, kulturologik tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bahoning mohiyati inson atrofidagi narsalar va hodisalar ahamiyatining subyektiv ifodasidir. Baho insonning tashqi va ichki dunyosining qadriyatini anglash vositasi sifatida shakllanadi. Shunday qilib, baho bu so'zlovchining o'z tajribasiga asoslangan holda voqelikka munosabatini aks ettiruvchi til kategoriyasidir. Baholash mezoni sifatida baholash belgisi yoki asosi olinadi. Baholash mezonlari ikki xil bo'ladi: ichki – individning affektiv sohasi bilan bog'liq; tashqi – subyektning bilimlariga asoslangan. Bahoning zaruriy elementlari mavjud bo'lib, ularni hisobga olmasdan baho haqiqiy deb bo'lmaydi. Bu elementlar quyidagilardir: subyekt – biror narsani baholovchi shaxs; obyekt – baholana-yotgan narsa yoki hodisa; bahoning xarakteri – ijobiy yoki salbiy; asos – mazkur hodisani ijobiy yoki salbiy deb hisoblash sababi.

Lingvistikada bahoga qo'shimcha elementlar ham xos: baholash shkalasi, uning motivlari, jihatlari, predikatlari. Subyekt sifatida alohida shaxs, shaxslar guruhi, jamiyatning bir qismi yoki butun jamiyat bo'lishi mumkin. Baho subyektiv kategoriya bo'lgani uchun, bir kishi uchun yaxshi bo'lgan narsa boshqasi

uchun yomon bo‘lishi mumkin. Hech qanday predmet yoki hodisa barcha uchun bir xil darajada yaxshi yoki yomon bo‘la olmaydi. Bahoning xususiyati individning qadriyat tasavvurlari, stereotiplari, tarixiy tajribasi, madaniyati va jamiyatda uzoq vaqt davomida shakllangan normalarga asoslanadi. Ba’zan subyekt nutqda ifodalanmaydi, biroq bayonet, baribir, bahoviy bo‘lib qoladi. Baholash obyekti esa faqat subyekt uchun muhim bo‘lgan narsalar yoki hodisalar bilan chegaralanadi. Bu jihati bilan baho klassifikatsiyadan tubdan farq qiladi. Klassifikatsiya bir xil obyektlar uchun umumiy asosda amalga oshiriladi va subyektiv qarashlarga bog‘liq emas. Baho esa faqat obyekt subyekt uchun muhim bo‘lgandagina amalga oshiriladi. Masalan, aqlli-tentak kontrastida “aql” belgisi – subyektda uning mavjudligi yoki yo‘qligi asosida hosil qilinadi; mehribon-yovuz dixotomiyasi esa individning shaxsiy sifatlari asosida belgilanadi [1;22-b.].

Baholash tizimining ajralmas qismi baholash shkalasi bo‘lib, u bir obyektni shu belgisi bo‘yicha o‘xshash boshqa obyekt bilan taqqoslash asosida shakllanadi. Bu shkala dinamik xususiyatga ega, ya’ni, baho belgining ortishi yoki kamayishi yo‘nalishida harakat qiladi va bunda til vositalaridan intensifikatsiya (kuchaytirish) hamda deintensifikatsiya (pasaytirish) ishlatiladi.

Ma’lum bir belgi dixotomiyasini ifodalovchi shkala tug‘ma jihatdan notekis bo‘lib, u ijobiy zona, salbiy zona va neytral (nol) zonadan tashkil topadi. Neytral nuqta baholashning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi, undan boshlab qiymatlar ijobiy yoki salbiy sohaga qarab belgilanadi.

Baholash aktini amalga oshirish uchun obyekt muayyan me’yor bilan solishtirilishi zarur. Me’yor ijtimoiy (jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar tizimi), axloqiy (individ vijdoni) yoki intellektual (solishtirma tahlil) bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy va individual ongda muayyan umumiylashtirilgan me’yorlar shakllanadi, ular stereotiplarni tashkil etadi. Stereotip bu biror hodisa haqidagi umumlashgan tasavvurdir. Stereotiplar ochiq (individ ularni anglab, baholashda qo‘llaydi) yoki yashirin (ong ostida bo‘lib, nazorat qilinmaydi va anglanmaydi) bo‘lishi mumkin. Bahoning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda, bir vaqtning o‘zida, obyektiv va subyektiv omillar mavjud bo‘ladi. Baho, o‘z tabiatiga ko‘ra, subyektivdir. Biroq shaxs obyektga munosabat bildirar ekan, u obyektning xususiyatlari haqidagi bilimlariga tayangan holda baho beradi [2;76-b.].

Bahoning turli tasniflari mavjud bo‘lib, ular turli mezonlarga asoslanadi. Masalan, E.M.Volf baholarni emotsional va ratsional turlarga ajratadi. Bu tipologiya qisman ilgari ko‘rib chiqilgan bahoni subyektiv va obyektivga bo‘lishni davom ettiradi. Ratsional bahoda obyekt sifatlari o‘rganilsa, emotsional bahoda so‘zlovchining subyektiv munosabati shakllanadi. Ba’zi mualliflar ratsional bahoning turlarini ham ajratib ko‘rsatadilar: utilitar (foydalilikka asoslangan), normativ (qoidalarga moslikka asoslangan) va boshqalar. Obyektlar soniga qarab baho mutlaq va qiyosiy bo‘ladi. Mutlaq baho “yaxshi-yomon” dixotomiyasi orqali ifodalanadi, qiyosiy baho esa obyektlarni “yaxshiroq, yomonroq” tarzida solishtirishni bildiradi. Baho umumiy va xususiy ham bo‘lishi mumkin. Umumiy baho obyektning alohida xususiyatlarini ajratmagan holda, uni butunlay “yaxshi-yomon” deb belgilashdir. Xususiy baho esa obyektning aniq bir belgisiga nisbatan beriladi. Bunday baho jamiyatda shakllangan me’yor va qoidalar bilan taqqoslash imkonini beradi [5;132-b.].

N.D.Arutyunova xususiy baholarning quyidagi tasnifini beradi. Sensor baholar: psixologik, sezgita’m yoki gedonistik (mazali, yoqimli), intellektual (qiziqarli, aqlli, sayoz), emotsional (g‘amgin, quvnoq) [2;14-b.].

Bahoviylikni ifodalashning yorqin usullaridan biri neologizmlardan foydalanishdir. Bu tushunchani ifodalash uchun ishlatiladigan atamalar ichida (innovatsiya, neoleksema, okkazionalizm va boshqalar) biz uchun odatiy bo‘lgani neologizmdir. Neologizm bu «go‘yoki tilning imkoniyatida mavjud bo‘lib, lekin faqat so‘nggi yillarda ma’lum modellarga ko‘ra qadimiy so‘zlardan hosil qilingan hosila so‘zlar»dir. Bunday neologizmlar uzual (til tizimidagi mavjud usullar yordamida) va nouzual (til tizimini buzuvchi usullar yordamida) yaratiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Xulosa qilib aytganda, baho kategoriyasi hozirgi kungacha munozarali masalalari mavjud bo‘lganligi sababli lingvistika, aksiologiya va pragmatika nuqtayi nazaridan ko‘p fanli tadqiqot uchun dolzarb mavzudir. Biz bahoni – so‘zlovchining obyektga nisbatan shakllangan munosabatini aks ettiruvchi fikr amali sifatida tushunamiz. Bahoviy vositalar bizda ijtimoiy tarmoqlardagi kommunikatsiya kontekstida kompleks tarzda o‘rganiladi: ham internet-izoh, ham kommunikativ vaziyat tahlil qilinadi. Internet-diskursda bahoviylik kommunikatsiyaning tajovuzkorlikka va yashirin tajovuzkorlikka intilishi bilan tavsiflanadi, bu esa leksik va sintaktik darajalarda namoyon bo‘ladi hamda nutqiy tajovuz vositalari, neologizmlar va til o‘yinidan foydalanishda ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Апресян Ю.Д. Избранные труды. Том 1. Лексическая семантика. М., “Языки русской культуры”, 1995.

(2). Арютюнова Н.Д. Язык и мир человека. М., "Языки русской культуры", 1999.
(3). Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., "Советская энциклопедия", 1966.
(4). Бондарко А.В. Функциональная грамматика. Л., "Наука", 1984.
(5). Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. М., "Наука", 1985.
(6). Ивин А.А. Основания логики оценок. М., изд-во МГУ, 1970.
(7). Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексико-семантической системе языка. Воронеж, 1987.

Axrarova Shoira Batirovna (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi)

PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKADA FIDOIYLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada psixologiya va pedagogika fanlari doirasida fidoyilik sifatini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Fidoyilik shaxsning jamiyat, Vatan va insoniyat manfaatlari yo'lida ongli ravishda xizmat qilishga tayyorligi sifatida talqin etilib, uning psixologik asoslari – altruizm, empatiya va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalari bilan bog'liq holda yoritiladi.*

Kalit so'zlar*: fidoyilik, altruizm, empatiya, o'smirlik davri, ijtimoiy mas'uliyat, pozitiv, ijobiy psixologiya.*

Ахарова Шоира Батыровна (самостоятельный соискатель Национального института педагогики воспитания имени Кори Ниязи)

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ КАЧЕСТВА САМООТВЕРЖЕННОСТИ В ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация. *В данной статье в рамках психологии и педагогики с научно-теоретической и практической точки зрения анализируются вопросы развития качества самоотверженности. Самоотверженность трактуется как готовность личности сознательно служить интересам общества, Родины и человечества и раскрывается во взаимосвязи с такими психологическими понятиями, как альтруизм, эмпатия и социальная ответственность.*

Ключевые слова*: самоотверженность, альтруизм, эмпатия, подростковый возраст, социальная ответственность, позитивная психология.*

Akhrarova Shoira Batirovna (Independent researcher at the National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyazi)

ISSUES OF DEVELOPING THE QUALITY OF DEVOTION IN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY

Annotation. *In this article, the issues of developing the quality of devotion are analyzed from scientific-theoretical and practical perspectives within the fields of psychology and pedagogy. Devotion is interpreted as a person's readiness to consciously serve the interests of society, the Motherland, and humanity, and is explained in close connection with psychological concepts such as altruism, empathy, and social responsibility.*

Keywords*: selflessness, altruism, empathy, adolescence, social responsibility, positive, positive psychology.*

Kirish. O'smir yoshdagi shaxslarda o'zini-o'zi anglash masalasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda eng ko'p muhokama qilinayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu masala jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan bolalik va o'smirlik davrlarida shaxsning asosiy psixologik va axloqiy poydevori shakllanadi. Bu bosqichlarda insonning qadriyatlar tizimi, axloqiy me'yorlarga munosabati, jamiyatdagi o'rni va hayotiy maqsadlari asta-sekin ongli ravishda anglab boriladi [6;45-47-b.].

Psixologik ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davri shaxsning o'zini, "meni"ni anglash, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga intilish, shuningdek, jamiyatda o'z mavqeyini topishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadigan muhim bosqichdir. Bu davrda o'smirlar o'zini boshqalardan farqlashini, shaxs sifatida tan olinishini va hurmat qilinishini istaydilar. Shu sababli ularda ijtimoiy faollik, mas'uliyat, tashabbuskorlik kabi sifatlarni rivojlantirish muhim pedagogik va psixologik vazifalardan biri hisoblanadi [9;78–80-b.].

Ayniqsa, fidoyilik kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlarni o'smirlik davrida shakllantirish alohida e'tiborni talab etadi. Fidoyilik shaxsning jamiyat, Vatan, oila va insoniyat manfaatlari yo'lida ongli ravishda xizmat qilishga tayyorligi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya bilishi bilan tavsiflanadi. Bu sifatning shakllanishi empatiya, mehr-shafqat, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi psixologik omillar bilan bevosita bog'liqdir [5;101–103-b.].

Inson xulq-atvorida fidoyilik va o'zini anglash sifatlarini rivojlantirish muammosi falsafa va axloqshunoslik, sotsiologiya hamda eksperimental psixologiya doirasida keng o'rganib kelinmoqda. Tadqiqotlar-